

“TERMIN” TUSHUNCHASINING O‘ZBEK VA QOZOQ TERMINOLOGIYASIDAGI TALQINI VA QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

*Qodirova Barno,
dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Samarqand davlat universiteti Samarqand, O'zbekiston*

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada “termin” tushunchasining o‘zbek va qozoq terminologiyasidagi talqini, etimologiyasi hamda qo‘llanish xususiyatlari qiyosiy-tipologik aspektda tahlil qilinadi. Tadqiqotda termin tushunchasining xalqaro terminshunoslikdagi nazariy asoslari, uning o‘zbek tilshunosligida termin, atama va istiloh birliklari bilan, qozoq tilshunosligida esa termin, nən cöz va amay birliklari bilan o‘zaro munosabati yoritiladi. Shuningdek, har ikki tilda terminologik siyosatning shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda terminologik me’yorlarning rivojlanishiga ta’sir etgan lingvistik va ekstralingvistik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari o‘zbek va qozoq terminologik tizimlarida termin tushunchasining qo‘llanish doirasi, semantik qamrovi va funksional xususiyatlari o‘rtasidagi umumiy hamda farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: termin, terminologiya, atama, istiloh, nən cöz, amay, o‘zbek terminologiyasi, qozoq terminologiyasi, qiyosiy-tipologik tahlil, terminshunoslik, ilmiy termin, til siyosati, milliy terminologiya.

A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE INTERPRETATION AND USAGE OF THE CONCEPT OF “TERM” IN UZBEK AND KAZAKH TERMINOLOGY

*Qodirova Barno,
docent, doctor of Philosophy in Philology (PhD),
Samarkand State University Samarkand, Uzbekistan*

ABSTRACT. This article presents a comparative-typological analysis of the interpretation, etymology, and usage characteristics of the concept of “term” in Uzbek and Kazakh terminology. The study examines the theoretical foundations of the concept of the term in international terminology studies and explores its relationship with the units termin, atama, and istiloh in Uzbek linguistics, as well as termin, pän söz, and atau in Kazakh linguistics. In addition, the article analyzes the formation of terminology policy in both languages, the main stages of its historical development, and the linguistic and extralinguistic factors that have influenced the evolution of terminological norms. The findings reveal both the common and distinctive features of the scope of use, semantic coverage, and functional characteristics of the concept of “term” within the Uzbek and Kazakh terminological systems.

Keywords: term, terminology, atama, istiloh, pän söz, atau, Uzbek terminology, Kazakh terminology, comparative-typological analysis, terminology studies, scientific term, language policy, national terminology.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ПОНЯТИЯ «ТЕРМИН» В УЗБЕКСКОЙ И КАЗАХСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Кодирова Барно,
доцент, доктор философии по филологии (PhD),
Самаркандский государственный университет
Самарканд, Узбекистан

АННОТАЦИЯ. В данной статье в сравнительно-типологическом аспекте анализируются интерпретация, этимология и особенности употребления понятия «термин» в узбекской и казахской терминологии. В исследовании рассматриваются теоретические основы понятия термина в международном терминоведении, а также его соотношение с единицами термин, атама и истилоҳ в узбекском языкознании и термин, пән сөз и атау — в казахском языкознании. Кроме того, анализируются процессы формирования терминологической политики в обоих языках, этапы её исторического развития, а также лингвистические и экстралингвистические факторы, оказавшие влияние на развитие терминологических норм. Результаты исследования позволяют выявить общие и отличительные особенности сферы употребления, семантического объёма и функциональных характеристик понятия «термин» в узбекской и казахской терминологических системах.

Ключевые слова: термин, терминология, атама, истилоҳ, пән сөз, атау, узбекская терминология, казахская терминология, сравнительно-типологический анализ, терминоведение, научный термин, языковая политика, национальная терминология.

Kirish. Turkiy tillar, xususan, o‘zbek va qozoq tillarida terminologik tizimlarning shakllanishi umumiy tarixiy, madaniy va lingvistik omillar bilan uzviy bog‘liq. Ularning rivojlanish bosqichlari, termin yaratish tamoyillari hamda terminologik me‘yorlarni belgilashdagi yondashuvlar ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Ayniqsa, termin so‘zining qo‘llanish doirasida ikki til terminologiyasida o‘ziga xos yondashuvlar shakllangan.

“Termin” tushunchasining o‘zbek va qozoq terminologiyasidagi talqini va qo‘llanish xususiyatlarini yoritishdan oldin, mazkur leksemaning etimologiyasi hamda tarixiy shakllanishiga qisqacha to‘xtalish zarur. Adabiyotlarga murojaat qilar ekanmiz, “termin” atamasi lotin tilidagi terminus so‘zidan kelib chiqqanligini anglaymiz [1, 104; 2, 66; 3, 298; 4, 485]. “Termin” atamasining etimologiyasi qadimgi Rim mifologiyasidagi Terminus nomi bilan bevosita bog‘liqdir [11, 303]. Rimliklar tasavvurida Terminus yer mulklari va hududiy chegaralarning homiysi bo‘lib, uning asosiy vazifasi chegaralarni belgilash va ularning daxlsizligini ta‘minlashdan iborat bo‘lgan [12]. Shu sababli terminus so‘zi dastlab “chegara”, “had”, “ajratuvchi nuqta” ma’nolarini ifodalagan.

Keyinchalik mazkur so‘zning ma’nosi kengayib, moddiy makondagi chegaralarni emas, balki tushunchalarning mazmuniy chegaralarini belgilash vazifasini anglata boshlagan. Natijada terminus ilm-fan va kasbiy faoliyat sohalarida muayyan tushuncha, hodisa yoki obyektning mazmunini aniq ifodalovchi maxsus nom ma’nosida qo‘llanila boshladi. Boshqacha aytganda, qadimgi Rim madaniyatida Terminus jismoniy chegaralarning homiysi bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy terminologiyada termin ma’lum bir ilmiy tushunchaning mazmuniy chegaralarini belgilovchi lisoniy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu semantik uzviylik “termin” atamasining shakllanishi va uning bugungi ilmiy mazmunini izohlashga asos bo‘ladi.

Demak, terminning asosiy mohiyati ham Terminus obrazidagi kabi ma’lum bir obyekt yoki tushunchaning chegaralarini aniq belgilashdan iborat bo‘lib, uning ilmiy muomaladagi vazifasi tushunchalarni bir-biridan farqlash va ularning mazmun doirasini qat’iy chegaralashdir.

Asosiy qism. Termin tushunchasining mazmuni xalqaro terminshunoslikda D.S.Lotte, E.Vyuster, G.O.Vinokur, A.A.Reformatskiy, V.P.Danilenko kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida shakllangan. Masalan, A.A.Reformatskiy terminni ma'lum bir fan yoki soha tushunchasini ifodalovchi maxsus til birligi deb hisoblaydi. Olimning fikriga ko'ra, terminning asosiy xususiyati uning muayyan terminologik tizim tarkibida aniq va chegaralangan ma'noga ega bo'lishidir [5, 46-54]. Mazkur ta'rif va uning nomi (termin) barcha tillar uchun umumiy xususiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida "termin" so'zi rus tili orqali kirib kelgan bo'lib, "terminologiya masalalariga qaratilgan ayrim ishlarda termin-atama-istiloh so'zlaridan sinonimik uya tarzida foydalanilgan" [6, 7]. Darhaqiqat, mustaqillikning dastlabki yillarida milliy til imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida termin o'rnida atama so'zini qo'llashga intilish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi ilmiy izlanishlar bu ikki birlikning mazmun va vazifasi bir xil emasligini ko'rsatdi. Xususan, A. Hojiyev termin va atama so'zlarini sinonim sifatida qo'llash ilmiy aniqlikni susaytirishini ta'kidlab, termin ilmiy tushunchalarni ifodalovchi maxsus leksik birlik, atama esa nomlash xarakteriga ega bo'lgan kengroq tushuncha ekanligini asoslab bergan [7, 22-25]. A.Madvaliyev ham ushbu yondashuvni rivojlantirib, terminni ilm-fan va texnika sohalariga oid maxsus tushunchalarni ifodalovchi birlik sifatida, atamani esa nomenklatura va shartli nomlash birliklariga nisbatan qo'llash maqsadga muvofiqligini qayd etadi [8, 28-30].

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida termin leksemasi ilmiy adabiyotlar, terminologik lug'atlar, davlat standartlari hamda normativ hujjatlarda asosiy terminologik birlik sifatida qo'llanmoqda.

Qozoq tilshunosligida "termin" atamasining qo'llanish tarixi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi va u mamlakatdagi til siyosati hamda terminologik qarashlarning o'zgarishi bilan chambarchas bog'liqdir. XX asr boshlarida milliy terminologiyani shakllantirish jarayonida Ahmet Baytursinov va Alash ziyolilari xalq tilining ichki imkoniyatlariga tayanishni maqsad qilganlar. Shu sababli "termin" tushunchasi dastlab "fan so'zlari" ("пән сөздері") nomi bilan ifodalangan. Ushbu atama 1920-yillarda ilmiy adabiyotlar, davriy matbuot va terminologik lug'atlarda faol qo'llanib, milliy termin yaratish tamoyillarining muhim ko'rinishiga aylangan.

1920-yillarning ikkinchi yarmida "fan so'zlari" ("пән сөздері") atamasi qozoq ilmiy muhitida ancha mustahkam o'rin egallagan bo'lib, A.Baytursinov, Y.Omarov, N.To'raqulov va X.Dosmuhamedov kabi olimlarning asarlarida muntazam uchraydi. Hatto 1927-yilda nashr etilgan terminologik lug'atning "Пән сөздері"[9] deb nomlanishi ham ushbu atamaning ilmiy muomalada yetakchi mavqega ega bo'lganligini ko'rsatadi. Bu holat qozoq terminologiyasining dastlabki bosqichida milliy nomlash tamoyili ustuvor bo'lganidan dalolat beradi.

Biroq 1930-yillardan boshlab Sovet Ittifoqida terminologiyani markazlashtirish va internatsional terminlarni ommalashtirish siyosati kuchaydi. Natijada "пән сөз" atamasi asta-sekin iste'moldan chiqib, uning o'rnini xalqaro xarakterga ega bo'lgan "termin" so'zi egalladi. Shu davrdan boshlab qozoq terminologiyasi rus terminologik tizimi ta'sirida rivojlana boshladi va "termin" atamasi barcha ilmiy adabiyotlarda yagona me'yor sifatida qo'llanildi. Mazkur jarayon qariyb oltmish yil davom etdi va natijada bir necha avlod olimlari hamda mutaxassisleri uchun "termin" atamasi odatiy ilmiy nomga aylandi.

Tilshunos Sh.Qurmanbayulining qayd etishicha, qozoq tilshunosligida "termin" tushunchasini nomlash masalasi qariyb bir asr davomida turli yondashuvlar asosida rivojlangan bo'lib, mazkur tushunchani ifodalash uchun пән сөз, пән атаулары, атау, аталым, атаусөз, ұғымсөз, термин//термин//термен kabi bir qator variantlar qo'llanishga tavsiya etilgan. Biroq ushbu variantlarning aksariyati alohida mualliflar yoki ayrim nashrlar doirasidagina qo'llanib, umumxalq va umumilmiy iste'mol darajasiga ko'tarila olmagan. Amaliy qo'llanish nuqtayi nazaridan esa "пән сөз" va "termin" atamaları eng barqaror hamda keng tarqalgan birliklar sifatida shakllangan [4, 483].

Xulosa. O'tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, termin tushunchasi o'zbek va qozoq terminologiyasida umumiy nazariy asosga ega. Uning talqini va qo'llanish amaliyoti har ikki tilda o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Bunga tarixiy taraqqiyot, til siyosati, milliy termin yaratish tamoyillari hamda xalqaro terminologik me'yorlarning ta'siri asosiy omil bo'lgan.

O'zbek terminologiyasida termin, atama va istiloh birliklarining o'zaro munosabati uzoq vaqt davomida ilmiy bahs-munozaralar markazida bo'lib kelgan. Mustaqillik yillarida milliy terminologiyani rivojlantirish jarayonida atama so'zini terminning muqobili sifatida qo'llash an'anasi kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi terminologik tadqiqotlar ushbu birliklarning semantik va funksional jihatdan aynan bir xil emasligini ilmiy asoslab berdi. Natijada zamonaviy o'zbek terminshunosligida termin ilm-fan va kasbiy faoliyatga oid maxsus tushunchalarni ifodalovchi asosiy terminologik birlik sifatida e'tirof etilib, atama va istiloh esa qo'llanish sohasi hamda funksiyasiga ko'ra differensial tarzda talqin qilinmoqda.

Qozoq terminologiyasida esa termin tushunchasining nomlanishi tarixiy taraqqiyotning bir necha bosqichlarini bosib o'tgan. XX asr boshlarida Ahmet Baytursinov boshchiligidagi milliy termin yaratish harakati doirasida пән сөзі (fan so'zi) atamasi ustuvor qo'llanilgan bo'lib, u milliy terminologik siyosatning muhim ifodasi hisoblangan. 1930-yillardan boshlab Sovet terminologik siyosati ta'sirida xalqaro termin leksemasi ilmiy muomalada hukmron mavqeni egalladi va uzoq vaqt davomida yagona me'yor sifatida qo'llanildi. Mustaqillik davrida esa пән сөз, атау, аталым, атаусөз, ұғымсөз kabi milliy muqobillarni tiklash va qo'llash yuzasidan turli takliflar ilgari surilgan bo'lsa-da, amaliyotda termin va qisman пән сөз birliklari eng barqaror va faol qo'llanayotgan nominativ vositalar sifatida saqlanib qoldi.

Qiyosiy-tipologik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki til terminologiyasida xalqaro termin leksemasi ilmiy muloqotning asosiy vositasi sifatida mustahkam o'rin egallagan.

Shunday qilib, termin tushunchasining o'zbek va qozoq terminologiyasidagi talqini faqat leksik yoki nominativ hodisa emas, balki har ikki xalqning ilmiy tafakkuri, terminologik siyosati va til taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab lingvistik jarayondir. Ushbu tadqiqot natijalari o'zbek va qozoq terminologik tizimlarini uyg'unlashtirish, turkiy tillarda yagona ilmiy-metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda terminologik me'yorlarni takomillashtirish bo'yicha keyingi izlanishlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002. – 164 б.
2. Pardayev A.B., Urinbayeva D.B., Islamova D.A. O'zbek terminologiyasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2024. – 164 b.
3. Салқынбай А., Абакан Е. Тіл әлемі. Лингвистикалық терминдердің анықтамалық сөздігі. Алматы: Қазақ университеті, 2021. – 402 б.
4. Құрманбайұлы Ш. Қазақ терминологиясы: зерттеулер, оқулық, сөздік, библиография. Алматы: «Сардар», 2014. – 928.
5. Реформатский, А.А. Что такое термин и терминология / А.А. Реформатский // Вопросы терминологии: материалы Всесоюзного терминологического совещания, М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С. 46-54.
6. Dadaboyev N. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019. – 118 b.
7. Хожиев А. Термин танлаш мезони. – Тошкент: Фан, 1996. – 48 б.
8. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 384 б.
9. Каратышқанов Н. Пән сөздері: терминологиялық сөздік (Қызылорда, 1927). – Алматы: Ер-Дәулет, 2004. – 128 б.
10. Большая Советская Энциклопедия, второе издание, ч. 42, 1956, – С. 303 (<https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/110/046.htm>).
11. [https://en.wikipedia.org/wiki/Terminus_\(god\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Terminus_(god))